

ZAMONAVIY GEOSIYOSIY HARAKATLAR YOHUD ENG YANGI KATTA O'YIN KONSEPSIYASI

Mamanazarov Solijon Sherzodbek o'g'li
Muhammadiyev Jamshid Ilhom o'g'li

*Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi yo'nalishi talabalari*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy geosiyosiy harakatlar yohud eng yangi katta o'yin konsepsiyasi, globallashuv sharoitida yangi dunyo tartiboti sharoitida geosiyosiy kurashlar markaziga aylangan mamlakatlar, yoki ikki tomon o'rtasida qurolli mojaro keltirib chiqarishga urinuvchi uchinchi tomon kuchlari, uchinchi mamlakatlar yoki harbiy bloklar haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Yaqin sharqdagi qayta rivojlangan urush, Rossiya-Ukraina qurolli qarama-qarshiligi, 38-parallelda qayta xavfli tus olib borayotgan siyosiy qarama-qarshilik, Xitoy-Tayvan muammosining asosiy sababchilar haqida ham to'xtalib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *geosiyosiy qarama-qarshilik, qurolli qarshilik, Yaqin sharq mojarosi, biolaboratoriya, qurol savdosi, uchinchi tomon kuchlari, propaganda, 38-parallel.*

Barchamizga ma'lumki geosiyosat tarixida ikki katta o'yin mavjud. Ular asosan Markaziy Osiyoda geosiyosiy ta'sir doirasi uchun kurash degan maqsadni ifodalaydi. Ammo, maqolada qo'llanilgan eng yangi katta o'yin konsepsiyasida bugungi davrdagi barcha geosiyosiy va qurolli mojarolarni o'z ichiga oladi. Barchamizga ma'lumki, g'arb davlatlari asosan AQSH geosiyosiy tarixiga nazar tashlasak unda "zolataya milliard" konsepsiyasini uchratishimiz mumkin. Yaqin yillarga qadar rad etib kelingan, ammo, oxiri tan olishdan boshqa chorasi qolmagan AQSH boshliq g'arb koalitsiyasi tan olgan "oltin milliard" konsepsiyasining maqsadi dunyoda faqat bir milliard amerikalik, yoki bir milliard amerikalik va uning ittifoqchi do'stlari tirik qolishi kerakligini, o'zlarini oliy irq deb hisoblashini o'zida mujassam etgan. Bugungi kundagi ro'y bergan siyosiy va qurolli mojarolar geosiyosiy tahlilchilar tomonidan qilingan tahlillar, xalqaro tashkilotlar tomonidan qilingan prognozlardan 100 foiz farq qiladi. BMT ko'pchilik sharq va osiyo mintaqasi mamlakatlari o'ylaganday ishonchli bo'lib chiqmadi. Ular g'arb koalitsion kuchlari manfaatlariga xizmat qilishi oydinlashib qoldi. Buni quyidagi mojarolar bilan tahlil qilib ko'ramiz.

Rossiya- Ukraina urushi (G'arb OAVlarida Rossiya bosqini). Ukraina Respublikasining g'arb qo'llab quvvatloviga intilishi NATOga kirishi uchun urinishi natijasida xalqaro huquq me'yorlari qo'lop ravishda buzilib, NATO Rossiya chegaralariga tomon yaqinlashishi xavfi vujudga keldi, Rasmiy Kreml vaziyatni diplomatik yo'l bilan, xalqaro tashkilotlar ishtirokida hal qilishga urindi, ammo diplomatik muzokara yo'li foyda bermadi. Ukraina rasmiylari Rossiyadan NATOga qoshilmaslik uchun Qrim yarimorolini talab qildi. Muzaokara ish bermagach Donetsk,

Lugansk shaharlarida rus millatiga nisbatan qirg'in boshlandi. Shahar rasmiylari tomonidan yuborilgan so'rov natijasida Rossiya Federatsiya Qurolli Kuchlari Donetsk va Lugansk shaharlari aholisini himoya qilish uchun hududga kirdi. NATO tomonidan qo'llov natijasida Ukraina vaziyatni yanada qiyinlashtirib yubordi. NATOning eski qurollari Ukrainaga harbiy yordam, tashqi qarz niqobida o'tkazildi. NATO evaziga o'z qurollarini yangi zamonaviylariga modernizatsiya qildi. Rasmiy Oq uy vakillari turli yo'llar bilan Ukrainalik mavqedoshlarini havolantirib yubordi. Natijada mamlakat rekord darajada tashqi qarzga botdi. Oq uy rasmiylari Rossiyaga Ukraina qo'li bilan urushish ko'zlangan edi. Pentagon generallaridan birining bayonotida "so'nggi ukrain xalqining so'nggi tomchi qoni qolmagunga qadar kurashamiz" – deya ta'kidladi. Kreml rasmiylari ham urushni hal qiluvchi zarba bermasdan atayin cho'zib kelmoqda. G'arb iqtisodiyoti Rossiya iqtisodiyotidan ko'ra zaif ekanligi tobora oydinlashib qolmoqda. Geosiyosiy tahlil markazlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra AQSH Ukrainda ikkinchi Afg'oniston yaratmoqchi degan fikrlarni yuzaga keltirmoqda. Ko'plab OAVlarda "Rossiya bosqini" atamasi ham uchramoqda. Dunyoda ko'plab mamlakatlar ikki frontga ajralishga majbur bo'ldi. E'tiborli jihati shundaki Rossiya Federatsiyasi AQSH boshliq g'arb koalitsiyaga qarshi kurashi mamlakat naqadar ulkan iqtisodiyotga, harbiy zaxiralarga ham ega ekanligidan dalolat bermoqda. AQSHning tashqi qarzi esa "2024-yil 2-yanvar kuni rekord darajaga yetdi, bu bilan tabriklayman"- deb ijtimoiy tarmoqdagi sahifasida post qoldirdi Mariya Zaxarova.

Yaqin sharq mojarosi (Isroil-Falastin urushi). Falastin yerlariga kelib o'rnashgan yahudiylar o'z mamlakati hududini kengaytirish maqsadida Falastin hududida yana qirg'in uyushtira boshladi. AQSH yana bu yerdagi siyosiy mojarolarga aralashib, dunyoni yana ikki tomonga ajratishga urindi. AQSH boshliq g'arb rasmiylari psixologiyasida islomofobiya kuchli darajada rivojlangan. Ular hatto Shvetsiyada musulmon olamining muqaddas kitobi "Qur'oni Karim"ni ham yoqib namoyishlar o'tkazishdi. Turkiya, Arab davlatlari va musulmon mamlakatlari ushbu harakatlarni keskin qoraladi. Rossiya Federatsiya Prezidenti Vladimir Putin ham ushbu millatchilik, irqchilik harakatlarini keskin qoraladi. Xalqaro tashkilotlar ushbu mojaro doirasida o'zini ko'rsatishga erishdi. Xalqaro doirada qabul qilingan rezolyutsiyasiyalar ovoz berish jarayonlarida AQSH boshliq ayrim mamlakatlar qarshi ovoz berishdi. Lekin ko'pchilik ovozi bilan rezolyutsiyalar qabul qilindi. Rasmiy Pekinning BMTdagi doimiy vakili Isroil vakilidan xavfsizlik kengashi a'zolari oldida ovozini ko'tarmasdan, hissiyotlarga berilmasdan gapirishi lozimligi haqida saboq berdi. Xitoy ham shu tariqa o'zini qanday pozitsiyada ekanligini namoyon qildi. Bir necha asrlik urush turli sabablar bilan qayta jonlanadi, qayta so'nadi. Falastinlik ko'plab fuqarolar asosan ayollar va bolalar urush qurboniga aylanishmoqda. Insoniyat tarixidagi ikki jahon urushida ko'plab insonlar qurbon bolishgan bo'lsa, Yaqin sharq mojarosi ham undan kam odam yo'qotmadi.

38-paralleldagi mojaro (Janubiy Koreya (Koreya Respublikasi) va Shimoliy Koreya (Koreya xalq demokratik respublikasi) urushi). Siyosatshunoslikda orqaga

qaytish- bu davlatning asosiy siyosatini o'zgartirishga majburlash strategiyasi. Odatda u hukmron rejimini almashtirishga qaratilgan. Bu chegaradan farq qiladi, ya'ni bu davlatning kengayishiga yo'l qo'ymaslikni anglatadi. Ilmiy adabiyotlarda ortga qaytish haqidagi munozaralarning aksariyati AQShning sovuq urush davridagi kommunistik mamlakatlarga nisbatan tashqi siyosati bilan bog'liq. Orqaga qaytarish strategiyasi sinab ko'rildi va 1950-yilda Koreyada va 1961-yilda Kubadagi harakatlar muvaffaqiyatli bo'lmadi. 1983-yilda Grenadada esa muvaffaqiyatli bo'ldi. Qo'shma Shtatlar siyosiy rahbariyati 1953-yil Sharqiy Germaniyadagi qo'zg'olon va 1956-yil Vengriya inqilobi paytida orqaga qaytishdan foydalanishni muhokama qildi, ammo Sovetlar aralashuvi katta urush xavfini oldini olishga qarshi qaror qildi. Ikkinchi jahon urushida (1943-yil Italiyaga, 1945-yil Germaniyaga, 1945-yil Yaponiyaga), Afg'onistonga (2001-yilda Tolibonga qarshi) va Iroqda (2003-yil Saddam Husaynga qarshi) AQShga dushman bo'lgan hukumatlarning orqaga qaytishi sodir bo'ldi. Mavjud hukumatga qarshi qaratilgan bo'lsa, orqaga qaytarish ba'zan "rejim o'zgarishi" deb ataladi. 1950-yil Koreya yarim orolida vaziyat keskinlashdi. Bu mintaqada ikki imperiya Sovetlar va Qo'shma shtatlar kuchlari to'qnashdi. Natijada yagona koreys xalqi ikkiga ajraldi: Shimoliy Koreya Sovetlar qo'llovida, Janubiy Koreya Qo'shma shtatlar qo'llovida. Moviy uyda davlat rahbari almashishi fonida ikki mamlakat o'rtasida aloqalar bir muncha yomonlashdi. AQSH, Yaponiya, Koreya qo'shma harbiy mashg'ulotlari natijasida Pxenyan qator raketa sinovlarini yapon dengiziga yo'naltirdi. Aloqalar bir muncha yomonlashdi. 2024-yil boshidan esa Pxenyan tomonidan Sariq dengizga kuchli artileriya zarbalari yo'llandi, natijada Yonpxyondo oroli aholisi evakuatsiya qilindi. Bu ochiqdan ochiq provakatsiya desa ham bo'ladi. G'arbning o'zi Donetsk va Luganskda qo'llagan usul ularning o'ziga nisbatan ham yo'llandi desak bo'ladi.

Xitoy- Tayvan mojarosi. Xitoyning Tayvanga bo'lgan davosi qayta avj olayotgan vaziyatda AQSH rasmiysi Nensi Pelosining Tayvanga tashrifi fonida vaziyat bir muncha murakkablashdi. Rasmiy davlat maqomida bo'lmagan, ko'plab davlatlar tomonidan tan olinmagan mamlakatga tashrif Xitoy suverinitetiga bevosita daxl qilish edi. Yagona Xitoy g'oyasini qo'llab quvvatlaymiz deb bayonot beruvchi rasmiy Oq uy, amalda boshqa ish qildi. AQSH- Xitoy munosabatlari ham bir muncha yomonlashdi. Savdo aloqalariga putur yetdi. Iqtisodiy jihatdan har ikki tomon ham zarar ko'rdi. Yagona Xitoy g'oyasi butun dunyo tomonidan qo'llab quvvatlanadi va Tayvan rasmiy davlat maqomiga ega emas. Tayvan 2-jahon urushiga qadar Yaponiya tarkibidagi mustamlaka edi. Urushdan so'ng ozod qilinadi. Tayvan rasmiylari o'z hukumatini shakllantirib Xitoy Respublikasi rasmiy nomidan foydalanishi mumkin ekanligi belgilangan. Xitoy xalq respublikasi rasmiylari 1970-yillar oxirida "Bir mamlakat- ikki tizim" deb nomlanuvchi dasturni taklif qildi. Taybey rasmiylari esa taklifni rad etib kelishmoqda. Agar ular qabul qilishsa kengaytirilgan huquqlarga ega avtonom Respublika maqomiga ega bo'lishi vada qilingan edi. Mojaro tashqi kuchlar aralashuvi natijasida keskinlik

ahamiyat kasb etmoqda. Mojaroni faqatgina tinch yo'l bilan hal qilish barcha uchun manfaatli deb aytsam mubolag'a bo'lmaydi.

Afg'oniston Islom Amirligi. Afg'oniston Respublikasi hukumati tepasiga Tolibon kelgach davlat tugatildi, uning negizida Afg'oniston islom amirligi tashkil etildi. Tolibon hukumat dastlab gender tenglik, xalqaro huquq me'yorlariga amal qilishga vada bergan edi. Vadalarini bir muncha amalga oshirdi. OAV va ayollar ta'limi, gender tenglik masalalari so'roq ostida qolmoqda. Tolibon o'zi aslida kim? Tolibon pushtuncha o'quvchilar, ta'lim oluvchilar degan ma'nolarni anglatadi. 1994-yil Afg'oniston pushtunlari tomonidan tuzilgan islomchi, radikal, diniy-siyosiy harbiylashgan harakat. Etnik mansubligiga ko'ra asosan pushtunlar, undan tashqari arablar, tojiklar, hazoralar, balujlar, panjoblilar va boshqalardan iborat. O'zi Tolibon harakati AQSH tomonidan Rossiya(uning o'tmishdoshi SSSR) kuchsizlantirish uchun tashkil etilgan. Ammo, boshqaruv AQSH qo'l ostidan chiqib ketgach ular AQSHga qarshi dushmanga aylandi. Okean orti mamlakatining Kichik Markaziy Osiyoda o'z geosiyosiy ta'sirini yo'qotmaslik uchun, afg'on mintaqasida tinchlik o'rnatish niqobi ostida mintaqamizda qo'shin saqlab turishga bahona yaratib berdi. Ko'plab davlatlar tomonidan Tolibon hukumat sifatida tan olinib, terrorchi tashkilot ro'yxatidan chiqarildi. Sobiq tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov bayonotiga ko'ra, ular tashqi hech qaysi bir davlat hududida terroristik akt sodir etmagan, shu sabab ularni terrorchi deb atash uchun asos yo'q. Afg'oniston imperiyalar qabristoni. Uch buyuk imperiya qabristoniga aylangan, ya'ni, Buyuk Britaniya, SSSR, AQSH.

O'zbekiston Respublikasi amaldagi mavjud qonunchilik normalariga ko'ra tashqi davlatlar ichki ishlariga aralashmaydi va ularni mamlakat ichki ishlariga aralashishiga yo'l qo'ymaydi. Harbiy bloklarga a'zo bo'lmaydi. Neytrallik pozitsiyasida bo'lishi belgilangan va amalda shunday bo'lmoqda. Biz mustaqil demokratik, dunyoviy, huquqiy davlatmiz. Bizni tashqi siyosiy faoliyatimiz asosan tinch, diplomatik, muzokara yo'li bilan hal etish asosiy yo'limizdir. Amir Temur ham o'z asarlarida dunyoni 99 qismini mashvarat bilan, 1 qismini qilich bilan oldim deya ta'kidlagan edi. Ya'ni masalani tinch diplomatik yo'l bilan hal etish asrlar osha ota-bobolarimizdan qolgan meros deb aytsam mubolag'a bo'lmaydi. Mustaqillik nima ekanligini, tinchlik nima ekanligini, ozodlik, erkinlik nima ekanligini xalqimiz yaxshi tushunadi. Bu kunlarga yetishish qanchadan qancha jadidlarimiz quloq qilindi. Yuzlab, minglab yurt o'g'lonlari o'ldirib yuborildi. Davlat boshqaruvi sohasida ishlab, fidokora mehnat qilib vafot etgan shaxslar nomi garchi ular vafot etgan bo'lsa ham yomon otliq qilindi. Shu sabab bugungi kunga erishish uchun qanchadan qanchada shaxslar jon berib, mashaqqatli mehnati evaziga erishdik desam mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda birinchi prezidentimiz, marhum Islom Abdug'aniyevich Karimovni bir ajoyib gaplari yodimga tushadi "Bu mustaqillik osmondan tushgan emas, bu mustaqillik, bu istiqloq oydan tushgan emas". Yurtimiz tinchligi, ozodligi uchun jon bergan shuncha insonlar hurmati yuzasidan ham mustaqilligimizni qadriga yetib, agar xavf tug'ilsa himoyasiga

otlana olsak, dushman mamlakatimiz nomini eshitgan zahoti qo'rquv bosadigan darajada yurtimizni rivojlantira olsak eng katta baxt mana shu emasmi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Samadov.A.R Geosiyosat asoslari o'quv qo'llanma- Samarqand-2021
- 2.Jumaniyozov.X.S Geosiyosat asoslari darslik- Toshkent-2021
- 3.Mamanazarov.S.Sh Markaziy Osiyoning tabiiy-geografik, ijtimoiy iqtisodiy, logistik imkoniyatlarining geosiyosiy jarayonlarga ta'siri maqolasi "Ko'p millatli jamiyatda tolerantlik, bag'rikenglikning ustuvorligini ta'minlashda milliy identiklik muammosining ijtimoiy-falsafiy tahlili" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 21-iyun 2023-yil 42-48-b.
- 4.Muhammadiyev.J.I Globallashuv sharoitida g'arb va islom munosabatlari rivojining o'ziga xos xususiyatlari maqolasi "Ko'p millatli jamiyatda tolerantlik, bag'rikenglikning ustuvorligini ta'minlashda milliy identiklik muammosining ijtimoiy-falsafiy tahlili" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 21-iyun 2023-yil 158-162-b.
- 5.Mamanazarov.S.Sh O'zbekistondagi mafkuraviy jarayonlar va milliy g'oyaga ehtiyoj hamda dunyodagi mafkuraviy kurashlar sharoitida milliy g'oyaning zarurligi maqolasi ERUS jurnali 14-oktabr 2023-yil 11-son 43-45-b.
- 6.Mamanazarov.S.Sh O'zbekiston- ijtimoiy-huquqiy davlat maqolasi Golden Brain jurnali 6-iyul 2023-yil 19-son 15-19-b.
- 7.Mamanazarov.S.Sh, Muhammadiyev.J.I, I.A.Karimov asarlarida ma'naviyatli shaxs qiyofasining yoritilishi maqolasi Golden Brain jurnali 6-yanvar 2024-yil
- 8.Daryo.uz elektron ommaviy axborot vositasi
- 9.Kun.uz elektron ommaviy axborot vositasi
- 10.O'zbekiston.24 telekanali
- 11.TASS Rossiya Federatsiyasi ommaviy axborot vositasi
- 12.GAPP XXR matbuot va nashrlar bosh boshqarmasi
- 13.CCTV Xitoy markaziy televideniyasi
14. Yonhap agentligi Koreya Respublikasi ommaviy axborot vositasi
15. Financial Times Buyuk Britaniya gazetasi